

ALISHER NAVOIYNING “HAYRATU-L-ABROR” DOSTONIDA MAQOLAT VA HIKOYAT O‘RTASIDAGI ESTETIK UYG‘UNLASHUV

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20603798>

Xolmurodov Islomiddin Xasan o‘g‘li

O‘zbek filologiyasi fakulteti tayanch doktoranti

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Islomiddin311096@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada “Hayratu-l-abror” dostonidagi maqolat va hikoyatlarda Navoiy falsafasi, badiiy-estetik qarashlarning shakllanishi, maqolalar va hikoyatlarning didaktik funksiyasi, hikoyatlar orqali adabiy-estetik qarashlarning ifodasi kabi masalalar o‘z aksini topgan. Maqolalar va hikoyatlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqliklari ochiqlab berilish bilan birgalikda ular o‘rtasidagi farqlar ham ochib beriladi. Tadqiqot davomida obrazlarning didaktik mazmuni estetik shaklda ifodalashdagi o‘rni yoritilib, Navoiy ijodida komil inson konsepsiyasining badiiy ifodasi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar

Alisher Navoiy, “Hayratu-l-abror”, maqolat, hikoyat, estetik qarashlar, axloqiy ideal, statik tasvir, dinamik tasvir

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы, отражённые в маколатах и хикоятах эпоса «Хайрат уль-аброр», включая формирование философских и художественно-эстетических взглядов Алишера Навои, дидактическую функцию маколатов и хикоятов, а также выражение литературно-эстетических идей через хикояты. Наряду с раскрытием тесной взаимосвязи между маколатами и хикоятами, также анализируются их различия. В ходе исследования освещается роль образов в выражении дидактического содержания в эстетической форме, а также раскрывается художественное воплощение концепции «совершенного человека» в творчестве Навои.

Ключевые слова

Алишер Навои, «Хайрат уль-аброр», мақолат, хикоят, эстетические взгляды, нравственный идеал, статическое изображение, динамическое изображение.

Annotation

This article explores issues reflected in the maqolats and hikoyats of the epic “Hayrat ul-Abror,” including the formation of Alisher Navoi’s philosophical and artistic-aesthetic views, the didactic function of maqolats and hikoyats, and the expression of literary-aesthetic ideas through hikoyats. Along with clarifying the close interconnection between maqolats and hikoyats, their differences are also examined. During the research, the role of images in expressing didactic content in an aesthetic form is highlighted, and the artistic representation of the concept of the “perfect human” in Navoi’s work is revealed.

Keywords

Alisher Navoi, “Hayrat ul-Abror,” maqolat, hikoyat, aesthetic views, moral ideal, static depiction, dynamic depiction

KIRISH(INTRODUCTION)

Sharq mumtoz adabiyotida axloqiy-falsafiy dostonlar alohida o‘rin egallaydi. Sababi azaliy qadriyatlar,urf-odatlar shuni taqozo etadi. Bu turdagi asarlarda badiiy fikr va didaktik g‘oya uyg‘un holda beriladi. Ana shunday yuksak namunalardan biri Alisher Navoiyning “Hayratu-l-abror” dostonidir. Asarda muallif axloqiy poklik, adolat, saxovat, inson kamoloti, va ilm kabi teran tushunchalarni maqolalar va hikoyatlar orqali yoritadi. Bugungi adabiyotshunoslikda Navoiy ijodini struktural va funksional jihatdan o‘rganish muhim yo‘nalishlardan biridir. Ayniqsa, maqolat va hikoyat munosabati, ularning estetik funksiyasi hali ham chuqur tahlilni talab qiladi.

ASOSIY QISM (MAIN PART)

Har qanday asar muallifi ham o‘zi yozayotgan asarida avvalo o‘zining dunyoqarashini fikr mulohazalarini va g‘oyasini ilgari suradi. Huddi shu jarayon tabiiki Navoiyda ham kuzatilgan Navoiy dostonning 21-bobini Xoja Bahovuddin Naqishband hamda Xoja Ubaydulloh Ahror madhlariga bag‘ishlaydi. “....Alisher Navoiyning muqaddimadagi so‘nggi bobni aynan shu shaxslarga bag‘ishlashi shoirning naqshbandiya suluki vakili ekanligiga ishora etadi.... Bob o‘z ichida ikki qismga ajratiladi. Birinchi qism 15 baytdan iborat bo‘lib, unda deyarli har bir baytda naqsh so‘zining turli holat va shakllarda ishtiyoq va tanosib san‘atlari vositasida qo‘llanilganligini ko‘ramiz....”¹⁶

¹⁶ Shuxrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik. “Tamaddun” Nashriyoti. Toshkent-2018. 79-b

Ya'ni dostonda keltirilgan hikoyatlar ham asosan diniy-aqidaviy, etiqodiy jihatidan tasavvufni chuqur targ'ib qila oladigan tariqat peshvolaridan mislollar keltiriladiki, Navoiyning o'z g'oyalariga munosib tushadi va ilgari surishiga dastak bo'ladi. Ta'kidlash joizki, maqolatlar va hikoyatlar o'rtasidagi estetik bog'liqlik Navoiy ijodiy metodining asosini tashkil etadi. Hikoyatlar faqat badiiy bezak emas, balki maqolatlardagi falsafiy-estetik g'oyalarni ochib beruvchi muhim vositadir.

"Hayratu-l-abror" tarkibidagi maqolatlar muallifning bevosita falsafiy mushohadalarini ifodalaydi. Ular ko'pincha umumlashgan, axloqiy va estetik xulosalar shaklida beriladi. Falsafiy umumlashma xarakteri, didaktik yo'nalish, estetik idealni belgilash, muallifning bevosita nutqi maqolatlarning asosiy xususiyatlarini tashkil etadi.

Navoiy maqolatlarda asosan insonni komil shaxs sifatida shakllantiruvchi omillarni tahlil qiladi. Masalan, ilm va adolat haqidagi fikrlar faqat axloqiy talab sifatida emas, balki estetik ideal sifatida ham talqin qilinadi. Bu yerda "go'zallik" tushunchasi faqat tashqi emas, balki ma'naviy mukammallik bilan bog'lanadi.

Shu boisdan ham har bir maqolatga javob tariqasida keltirilgan hikoyatlarning badiiy-funksional vazifasi alohida ahamiyatga ega. Maqolatlarda berilgan g'oyalar ko'pincha abstrakt xarakterga ega bo'lganligi, ya'ni aniq bir shaxs yoki narsaga bog'lanmaganligi sababli, ularni hayotiy misollar bilan mustahkamlash zarur bo'ladi. Bu vazifani hikoyatlar bajaradi. Maqolatlar "Hayratu-l-abror" dostonining asosiy strukturaviy qismlaridan biri bo'lib, ular muallifning bevosita nutqi orqali ifodalanadi. Maqolatlarda Navoiy falsafiy, axloqiy va estetik qarashlarini umumlashtirilgan shaklda bayon qiladi. Bu jihatlar ularni oddiy nasihat emas, balki badiiy-falsafiy konsepsiya darajasiga olib chiqadi.

Estetik qarashlarning shakllanishi

Navoiyning estetik qarashlari faqat tashqi go'zallik bilan emas, balki ma'naviy kamolot bilan bog'liq. Unga ko'ra, haqiqiy go'zallik – bu inson axloqi, ilmga intilishi va adolatga sadoqatidir.

Maqolatlarda bu g'oya quyidagicha ifodalanadi:

Inson kamoloti = axloq + ilm + adolat

Go'zallik = ichki ma'naviyat

Jamiyat taraqqiyoti = adolatli tizim

Maqolatlarning didaktik funksiyasi

Maqolatlar o'quvchini bevosita tarbiyalashga qaratilgan. Biroq Navoiy bu jarayonni quruq nasihat shaklida emas, balki badiiy-estetik til orqali amalga oshiradi.

Bu esa maqolatlarning:

Ta'sir kuchini oshiradi

Fikrni chuqurroq singdiradi

O'quvchini mulohazaga undaydi

Maqolatlarda estetik ideal masalasi

Navoiy estetik idealni insonning ma'naviy mukammalligi bilan bog'laydi.

Uning qarashlariga ko'ra:

Adolat – eng oliy estetik qadriyat

Saxovat – inson go'zalligining belgisi

Ilm – ruhiy yuksalish vositasi

Bu qarashlar maqolatlarda nazariy shaklda beriladi

Dostonda hikoyatlarning tasviriy, dalillovchi, estetik ta'sir, tarbiya vositasi kabi bir qancha asosiy vazifalari mavjuddir. Muallif har bir maqolatlarning davomidan keltirgan hikoyatlarida ulardagi g'oyani hayotiy voqealar orqali tasvirlaydi. Bu holat tasviriy vosita vazifasini bajaradi va o'quvchiga fikrni oson tushunish imkonini beradi. Tasviriylik badiiy asarning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, u o'quvchiga voqea va obrazlarni ko'z oldiga keltirish imkonini beradi. Qolaversa hikoyatlar bir vaqtning o'zida muallif fikrini isbotlovchi badiiy dalil sifatida xizmat qiladi. Bu esa dalillovchi vosita hisoblanadi. Hikoyatlar obrazlar, konflikt va syujet orqali o'quvchining hissiyotiga ta'sir qiladi. Boyazid Bistomiy, Abdulloh Muborak, Hoja Muhammad Porso kabi obrazlar haqida keltirilgan hikoyatlar axloqiy xulosani ongga singdiradi. Hikoyatlarning mazkur vazifalari maqolatlar va hikoyatlar o'rtasidagi estetik uyg'unlikni ta'minlaydi. Ular o'zaro dialektik bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi. Maqolat – nazariy asos, hikoyat esa amaliy isbotdir.

Bu uyg'unlik quyidagi jihatlarda ko'rinadi:

G'oyaning nazariy va badiiy qatlamlarda berilishi;

Fikrning konkretlashuvi: umumiy fikrning individual voqea orqali ochilishi

Estetik kuchayish: hissiy ta'sirning ortishi

O'quvchi idrokining faollashuvi

Masalan, adolat haqidagi maqolatlarda berilgan umumiy fikrlar keyingi hikoyatda konkret hukmdor yoki oddiy inson taqdiri orqali tasvirlanadi. Bu esa adolat tushunchasini faqat nazariy emas, balki hayotiy zarurat sifatida ko'rsatadi.

Maqolatlarda Navoiy ko'pincha umumiy va falsafiy fikrlarni bayon qiladi. Masalan, adolat, saxovat yoki ilmning ahamiyati haqida nazariy mulohaza yuritadi. Hikoyatlarda esa ushbu tushunchalar jonli obrazlar va voqealar orqali tasvirlanadi.

Masalan: saxovat tushunchasi – muruvvatli inson harakatlari orqali;

ilmning fazilati – donishmand obrazi orqali ko'rsatiladi.

Shunday qilib, hikoyat mavhum tushunchalarni aniq va ko'rinadigan holga keltiradi. Hikoyatlarning tasviriy vazifasi, avvalo, obraz yaratishda namoyon bo'ladi. Navoiy qahramonlarning: xarakterini, ruhiy holatini, xatti-harakatlarini, jamiyatdagi o'rnini tasvirlash orqali o'quvchida muayyan taassurot uyg'otadi. Natijada o'quvchi faqat "yaxshi inson" yoki "zolim hukmdor" degan tushunchani emas, balki uning badiiy qiyofasini ham tasavvur qiladi. Hikoyatlar voqealarni harakatda ko'rsatadi. Bu esa maqolatdagi statik fikr¹⁷ni dinamik tasvir¹⁸ga aylantiradi. Bunday tasvirni kichik bir jumla orqali ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, Agar muallif: "Podshoh adolatli edi." deydigan bo'lsa, bu oddiy tavsif bo'lib, dinamiklik kuchli bo'lmay qoladi. Ammo: "Podshoh mazlumning arzini eshitib, zolim amaldorni jazoladi va xalq orasida adolatni tikladi." desa, voqea harakatda tasvirlanadi. Bu dinamik tasvir hisoblanadi. Statik va dinamik tasvir farqi statik tasvir holatni tasvirleydi, turg'unlik birlamchi, tasvir ustunlik qiladi. Dinamik tasvirda esa harakatni tasvirleydi, rivojlanuvchi, voqea ustunlik qiladi. Statik tasvirda "Qanday?" savoliga javob beradi, dinamik tasvirda esa "Nima qildi?" savoliga javob beradi.

"Hayratu-l-abror" da maqolalar ko'proq statik xarakterga ega, chunki ularda g'oya va mulohaza bayon qilinadi. Hikoyatlar esa dinamik tasvirga asoslanadi, chunki ularda qahramonlar harakati, voqealar rivoji va ularning natijalari ko'rsatiladi. Dostonda hikoyatlar maqolatlardagi nazariy-estetik qarashlarni dinamik tasvir vositasida jonlantiradi. Natijada mavhum g'oyalar harakatdagi obrazlar va voqealar orqali konkret badiiy mazmun kasb etadi.

Masalan: maqolatda vafoli bo'lish haqida fikr bildiriladi. Hikoyatda esa ikki vafoli do'stlarning hatti harakati va uning natijasi ko'rsatiladi.

Bu usul g'oyaning ta'sirchanligini kuchaytiradi.

Hikoyatlar orqali adabiy-estetik qarashlarning ifodasi

Navoiy estetik qarashlari hikoyatlar orqali yanada chuqurlashadi. Bu jarayonda uch asosiy yo'nalish kuzatiladi:

1. Inson go'zalligi konsepsiyasi

Insonning ichki fazilatlarini tashqi go'zallikdan ustun qo'yiladi.

2. Axloqiy ideal

¹⁷ Statik tasvir- adabiyot va san'atda harakat yoki o'zgarishsiz, bir lahzalik "muzlab qolgan" xolatni ifodalovchi tasvirdir.

¹⁸ Dinamik tasvir — adabiy asarda voqea, obraz yoki holatning harakat jarayonida, o'zgarish va rivojlanish bilan tasvirlanishidir. Boshqacha aytganda, dinamik tasvirda qahramon yoki voqea bir holatda turmaydi, balki: harakat qiladi, qaror qabul qiladi, kurashadi, o'zgaradi, ma'lum natijaga erishadi.

Saxovat, adolat va ilm, vafo, rostgo'ylik va boshqa axloqiy me'zonlar eng oliy estetik qadriyat sifatida ko'rsatiladi.

3. Badiiy haqiqat

Hikoyatlar real hayotda sodir bo'lganligi uchun hayotiylik tamoyiliga asoslanadi. Shu tariqa hikoyatlar maqolatlardagi estetik qarashlarni konkretlashtiradi va ularni badiiy haqiqat darajasiga olib chiqadi.

E'tibor berilishi kerak bo'lgan yana bir jihat ham borki, u ham bo'lsa ogohlik falsafasidir.

Navoiy dostonida asosiy g'oyasi sifatida ALLOH taolo tomonidan berilgan barcha ne'matlar kabi umr nomli eng buyuk ne'matni ham inson qadrlashi lozimligini bayon qilar ekan, eng avvalo, umrni qanday o'tkazayotganligiga kishi ogoh bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Navoiy dunyoni hush ahli uchun zindon ekanligini ta'riflar ekan, bu zindonga bog'lanib qolmoq va uning uchun kuyinmoq asil nodonlik ekanini aytadi:

Dahrki hush ahlig 'a zindon erur

Bo'lg'on anga shefta nodon erur¹⁹

Navoiy ko'ngilni zindonning bandi bo'lmish zanjiriga bog'lab, o'zni zulmatga solmaslikka chaqiradi, zindonning chohiga (chuqurligiga) aqilni tashalb qo'ymaslik kerakligini aytadi. Chunki "Doirai dahrband" doira shaklida aylanuvchi zamon oxir oqibat kishini oxir oqibat tuproq ichiga kiritadi.

Bu fikrlarni filologiya fanlari doktori professor Nurboy Jabborov o'zining "Maoniy ahlining sohibqironi" nomli monografiyasida shunday izohlaydi: "“Hayratu-l-abror” dostonining o'n sakkizinchi maqolatida “Har nafaskim hayot gulshanidin nasim durur, qadrin bilmak” zarurligi betakror poetik ifodasini topgan. Mana ulug' bobokalonimiz qanday nasihat qilganlar:

Har nafasing javhare erur nafis-

Kim sanga ul bir nafas erur anis.

Javhar-bu o'rinda bebaho ma'nosida. "Burhoni qote' " lug'atida bu so'zning vujudi mutlaqni ham anglatishi aytiladi. Shuning o'ziyoq nafasning javharga tashbeh etilishida qanchalik fasohat va balog'at borligidan dalolat beradi. Anis - do'st demaktir. Demak nafas insonning do'sti. Uni qadrlamoq esa burchdir."²⁰

Ya'ni umrni qanday o'tkazishga har bir kishi ogoh bo'lmog'i lozim.

Tasviriylikning asosiy vazifalaridan biri estetik zavq uyg'otishdir. Hikoyatlar:

¹⁹ Navoiy A. "Hayratu-l-abror". Toshkent: G'ofur G'ulom nashriyoti, 2020.

²⁰ Jabborov N. "Maoniy ahlining sohibqironi" Toshkent: "Adabiyot"-2021.

badiiy obrazlar, qiyoslar, hayotiy tafsilotlar, ramziy ma'nolar orqali o'quvchining tasavvurini boyitadi. Natijada o'quvchi g'oyani nafaqat anglaydi, balki uni his qiladi va ruhiy jihatdan qabul qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, "Hayratu-l-abror" da maqolat va hikoyat o'zaro uzviy bog'liq badiiy tizimni tashkil etadi. Maqolatlar nazariy-estetik qarashlarni ifodalasa, hikoyatlar ularni hayotiy va ta'sirchan shaklda ochib beradi. Hikoyatlar maqolatlardagi g'oyalarni: konkretlashtiradi, dalillaydi, hissiy jihatdan boyitadi, va estetik ta'sir kuchini oshiradi. Tasviriy vosita sifatida maqolatlarda ilgari surilgan adabiy-estetik qarashlarni jonli obrazlar va hayotiy voqealar orqali namoyon etadi. Ular mavhum falsafiy tushunchalarni konkret badiiy tasvirga aylantirib, asarning estetik ta'sir kuchini oshiradi hamda o'quvchining fikr va hissiyotiga bir vaqtning o'zida ta'sir ko'rsatadi. Shu bois hikoyatlar Navoiy poetikasida g'oyani obrazlashtirish va estetiklashtirishning muhim vositasi hisoblanadi. Shu sababli Navoiy ijodida hikoyat faqat yordamchi unsur emas, balki asosiy estetik fikrni tashuvchi muhim badiiy komponentdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Навоий А. «Хайрат-ул-аброр». — Тошкент: Фан, 1989.
2. Навоий А. «Хамса». 1-жилд. — Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт, 1991.
3. Navoiy A. "Hayratu-l-abror". Toshkent: G'ofur G'ulom nashriyoti, 2020.
3. Навоий А. «Мукаммал асарлар тўплами». 20 жилдлик. — Тошкент: Фан, 1987-2003.
4. Shuxrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik. "Tamaddun" nashriyoti. Toshkent-2018.
5. Ibrohim Haqqul. Zanjirband sher qoshida. "Yulduzcha" nashriyoti Toshkent - 1989.
6. Jabborov N. "Maoniy ahlining sohibqironi" Toshkent: "Adabiyot"-2021